

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.17399062>

MINTAQADA IJTIMOY XIZMATLARNI RIVOJLANTIRISH OMILLARI VA ULARNING TAHLILI

Nasretdinova Farangis Odilovna

*PhD., "Iqtisodiyot" kafedrası dots.v.b., Abu Rayhon Beruniy nomidagi UrDU,
farangisnasretdinova1@gmail.com*

Annotatsiya. Ushbu maqolada mintaqada ijtimoiy xizmatlarni rivojlantirish omillari, ularning iqtisodiy va ijtimoiy samaradorligi tahlil qilinadi. Tadqiqotda ijtimoiy loyihalarning "ijtimoiy ta'sir" (social impact) mezonlari asosida baholash modeli taklif etilgan. Shuningdek, O'zbekiston sharoitida ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat yurituvchi NNTlarning roli, ularning hududiy taqsimlanishi va rivojlanishdagi to'siqlari o'rganilgan.

Kalit so'zlar. Ijtimoiy xizmatlar, ijtimoiy ta'sir, ijtimoiy korxona, nodavlat notijorat tashkilotlari, inson kapitali, ijtimoiy loyiha, ijtimoiy iqtisodiyot, mintaqaviy rivojlanish.

KIRISH.

Dunyoning ko'plab mamlakatlarida sotsialistik tizim parchalanishi hamda bozor iqtisodiyoti modellarining rivojlanishi ijtimoiy sohaga e'tibor kamayib, asosan iqtisodiy foyda olishga intilish kuchayib ketishiga sababchi bo'ldi. Natijada sof iqtisodiy qonunlar o'tish davridagi mamlakatlarning ijtimoiy muammolarini hal etishga qodir emasligi yaqqol namoyon bo'ldi.

XIX asrning dastlabki yillarida, jumladan 2001, 2008, 2014-yildagi iqtisodiy inqirozlar hamda 2019-yilda boshlangan Covid-19 pandemiyasi butunjahon iqtisodiyotiga ijtimoiy himoya, ijtimoiy xizmatlar zarurligini ko'rsatib qo'ydi. Ijtimoiy siyosat tizimining o'zi bu vazifani bajarishda ojizligini va unga qo'shimcha ko'makchi kuch lozimligini ko'plab holatlar isbotladi. O'sha yordamchi kuch bu ijtimoiy iqtisodiyotning asosiy elementi bo'lgan, ijtimoiy xizmatlar ko'rsatuvchi davlat va nodavlat tashkilotlaridir. Ijtimoiy xizmatlar ko'rsatuvchi korxona va tashkilotlar dunyoning turli nuqtalarida turlicha ko'rinish va darajada shakllangan. Ijtimoiy loyihalar ishlab chiqish hamda ularni jamiyatdagi muammolarni hal qilishga yo'naltirish ijtimoiy korxonalar va tashkilotlar (NNTlar) faoliyatining asosini tashkil etadi. Bunday loyihalarni moliyalashtirish uchun, eng avvalo uning samaradorligini baholash zarur hisoblanadi.

ADABIYOTLAR SHARHI.

Ijtimoiy xizmatlarning alohida rivojlanish qonuniyatlari, nodavlat sektorining markazlashuviga oid konseptual qarashlar asosida o'rganish masalalari

bo'yicha xorijlik sotsiolog olimlardan Y. Dyurkgeym, R. Merton, N. Smelzer, Y. X.Lampert [1] va boshqalar ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishgan. Ushbu ustuvor sohani o'rganishda O'zbekistonlik olimlardan Abduraxmonov Q.X., Pardayev M.Q., Isroilov J.I., G'apparov A.Q., Raxmonov D.A. [2] va boshqalarning hissasi katta.

METODOLOGIYA.

Maqolada ilmiy-abstraksiya, tahlil, sintez, iqtisodiy statistik, qiyosiy tahlil va guruhlash usullaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR.

Ijtimoiy korxonalar va NNTlar tomonidan taqdim etiladigan ijtimoiy loyihalarni baholash mezonlari hali to'liq ishlab chiqilmagan, ammo hozirgi kunda amaliyotda investitsiya loyihalarni baholash usullaridan foydalanib kelinmoqda. Iqtisodiyotning real sektoriga yo'naltirilgan investitsion loyihalardan farqli o'laroq, ijtimoiy sohaga qaratilgan ijtimoiy loyihalarni baholashda asosiy mezon sifatida **"ijtimoiy ta'sir"** (**social impact**) ko'rsatkichi qabul qilingan [3]. Baholashning bunday usuli orqali loyihaning nafaqat ijtimoiy ta'siri (samarasi), balki iqtisodiy samarasi (tijorat foydasi) ham hisobga olinadi. Xususan, loyihaning umumiy sof joriy qiymati (NPV_{total} : Total Net Present Value) loyihaning moliyaviy sof joriy qiymati (NPV_{fin}) va ijtimoiy sof joriy qiymati (NPV_{soc}) yig'indisiga teng:

$$NPV_{total} = NPV_{fin} + NPV_{soc} \quad (1)$$

Ijtimoiy loyihalarni qo'llab-quvvatlovchi tashkilotlarning tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki [4], ijtimoiy xizmatlar ko'rsatuvchi tashkilotlarga oid loyihalarda "ijtimoiy ta'sir" (social impact) asosan quyidagi 4 ta guruhga ajraladi:

- a) Jamiyatning ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlami uchun ish o'rinlarini yaratish (nogironlarni, ko'p bolali yolg'iz onalar va boshqalarni ish bilan ta'minlash).
- b) Hukumatning alohida e'tiboriga muhtoj ayrim fuqarolarning ijtimoiy faolligini oshirish hamda jamiyatga moslashishiga ko'maklashish (giyohvandlar, sobiq mahkumlar, mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilari va boshqalar).
- c) Hududda ijtimoiy sharoitlarni yaxshilash, ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish (bolalar uchun imtiyozli narxlarda fan, sport to'garaklari tashkil etish, ijtimoiy shifoxonalar, dorixonalar tashkil etish va boshqalar).
- d) Nogironlarni reabilitatsiya qilish (nogironlarning normal turmush tarzi uchun sharoitlar yaratish, muntazam tibbiy ko'rik, davolashga oid ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish bo'yicha istiqbolli dasturlar ishlab chiqish va h.k.).

Mintaqa ijtimoiy xizmatlar va ijtimoiy tadbirkorlik salohiyatiga baho berishda ikki xil darajada, xususan, mikro va makro darajada yondashildi. Yuqorida keltirilgan ijtimoiy loyihalarning "ijtimoiy ta'sirini" baholovchi formula hamda undagi sof ijtimoiy qiymatni hosil qiluvchi mezonlar ijtimoiy korxonalar doirasida amalga oshirilgan mikro darajadagi yondashuvdir. Milliy iqtisodiyotning ijtimoiy holati, ijtimoiy iqtisodiyot hamda uning tarkibiy elementi bo'lgan ijtimoiy xizmatlar ko'rsatuvchi tashkilotlarning salohiyatiga makro darajada baho berishda inson kapitalining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasini o'lchovchi indeks va

ko'rsatkichlardan foydalanilgan (1-jadval).

1-jadval.

Milliy iqtisodiyotning ijtimoiy holati hamda ijtimoiy xizmatlar salohiyatini baholash usullari

Mikro darajada baholash (Ijtimoiy korxona va ijtimoiy loyihalar "ijtimoiy ta'siri"ni o'lchash orqali)			
№	Mazmuni	Hisoblash formulasi	Asosiy belgilar
1.	Jamiyatning ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlami uchun ish o'rinlarini yaratish (nogironlar, ko'p bolali yolg'iz onalar va boshqalar)	$NPV_{soc}^1 = NPV_{soc1}^1 + NPV_{soc2}^1$	NPV_{soc1}^1 - hukumat hamda mahalliy budjetga soliq tushumlar hamda ayrim xarajatlarning (masalan, ishsizlik nafaqasi) qisqarishi sifatidagi ijtimoiy ta'sir; NPV_{soc2}^1 - ijtimoiy nochor aholiga ish o'rinarining yaratilishi hamda muntazam daromadning ta'minlanishi ko'rinishidagi ijtimoiy ta'sir
2.	Hukumatning alohida e'tiboriga muhtoj ayrim fuqarolarning ijtimoiy faolligini oshirish hamda jamiyatga moslashishiga ko'maklashish (giyohvandlar, sobiq mahkumlar, mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilari va boshqalar).	$NPV_{soc}^{II} = \sum_{t=1}^T \frac{k_t \cdot q \cdot L}{(1 + r_2)^t}$	k_t - ijtimoiy ko'mak oluvchi fuqarolar soni; q - alohida e'tiborga muhtoj ayrim fuqarolarning jamiyatga ko'nika olmaslik ehtimoli; r_2 - loyiha natijasida ijtimoiy samaraga ega bo'luvchi shaxs uchun imtiyoz (chegirma) stavkasi;
3.	Hududda ijtimoiy sharoitlarni yaxshilash, ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish (bolalar uchun imtiyozli narxlarda fan, sport to'garaklari tashkil etish, ijtimoiy shifoxonalar, dorixonalar tashkil etish va boshqalar)	$NPV_{soc}^{III} = \sum_{t=1}^T \frac{k_t \cdot (p_m - p)}{(1 + r_2)^t}$	p_m - tovar va xizmatlarning bozor narxi; p - tovar va xizmatlarning imtiyozli narxlari (ijtimoiy loyihalari doirasida); k_t - kutilayotgan mijozlar soni.
4.	Nogironlarni reabilitatsiya qilish (nogironlarning normal turmush tarzi uchun sharoitlar yaratish, muntazam tibbiy ko'rik, davolashga oid ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish bo'yicha istiqbolli dasturlar ishlab chiqish va h.k.).	$NPV_{soc}^{IV} = \sum_{t=1}^T \frac{k_t \cdot h \cdot L}{(1 + r_2)^t}$	h - aqliy/jismoniy nuqsonlar yo'qligi ahamiyatining miqdoriy ko'rsatgichi (inson hayotining iqtisodiy qiymati foizi sifatida); k_t - ijtimoiy yordam olgan fuqarolar soni.
6.	Ijtimoiy loyihalarning ijtimoiy rentabelligi	$R_{soc} = \frac{NPV_{soc}}{I}$	I - ijtimoiy loyihalarga kiritilgan investitsiya miqdori
7.	Ijtimoiy loyihalarning ijtimoiy rentabelligi	$R_{fin} = \frac{NPV_{fin}}{I}$	I - ijtimoiy loyihalarga kiritilgan investitsiya miqdori

8.	Ijtimoiy loyihalarning umumiy rentabelligi	$R_{total} = R_{fin} + R_{soc}$	
Makro darajada baholash (Inson kapitali rivojlanish darajasini o'lash orqali)			
№	Indeks	Mazmuni	
9.	Inson taraqqiyoti indeksi (Human Development Index)	- Sog'lom turmush tarzi, uzoq umr ko'rish davomiyligi; - Kattalarning savodxonligi, umumiy, o'rta, oliy ta'limga aholining qamrov darajasi; - Aholi jon boshiga YaIM ulushi (AQSH dollarining HQP hisobidan) [5]. O'zbekistonning indeks qiymati 0,727 (maksimal indeks qiymati 1,000 dan) bilan 189 davlat orasida 106-o'rinni egalladi (2022-yil) [6].	
10.	Ijtimoiy taraqqiyot indeksi (Social Progress Index)	Ushbu indeks jamiyat farovonligini iqtisodiy omillardan ko'ra bevosita ijtimoiy va ekologik natijalarni kuzatish orqali o'laydi. Ijtimoiy va ekologik omillarga farovonlik (shu jumladan salomatlik, boshpana va sanitariya), tenglik, inklyuzivlik, barqarorlik, shaxsiy erkinlik va xavfsizlik kiradi [7]. Indeks 3 ta mezon asosida o'lanadi: - Insonning asosiy ehtiyojlari; - Farovonlikning ta'minlanishi; - Imkoniyatlar [8]. O'zbekistonning ushbu ko'rsatkich bo'yicha xalqaro o'ri 119-o'rin bo'lib, o'rtacha foiz darajasi 61,12 ni tashkil etadi (2022-yil) [9].	
11.	Real taraqqiyot indeksi va barqaror iqtisodiy boylik indeksi (Genuine Progress Indicators and Index of Sustainable Economic Welfare)	Ushbu indeks iqtisodiy farovonlikning munosib ko'rsatkichini yaratishga, tashqi ta'sirlarni hisobga olgan holda YaIM darajasini yaxshilashga urinishdir (Genuine Progress Indicators, 1998). Real taraqqiyot indeksi quyidagi tarkibiy qismlarni aks ettiradi: • Jinoyat va oilaning buzilishi. • Uy va ixtiyoriy mehnat. • Daromadlarni taqsimlash. • Resurslarning tugashi. • Ifloslanish. • Uzoq muddatli atrof-muhitga zarar yetkazish. • Bo'sh vaqt miqdorini o'zgartirish. • Mudofaa xarajatlari. • Bardoshli buyumlarning ishlash muddati. • Chet el kapitaliga qaramlik [10].	
12.	Xalqaro baxt indeksi (Happy Planet Index)	Xalqaro baxt indeksi 2006-yil iyul oyida Yangi Iqtisodiyot Jamg'armasi (New Economic Foundation) tomonidan taklif qilingan dunyoning turli mamlakatlaridagi odamlar farovonligi va atrof-muhit holatini aks ettiruvchi indeksdir. Indeksning asosiy vazifasi xalqlarning "haqiqiy" farovonligini aks ettirishdan iborat.. Ushbu indeks birinchi marta 2006-yilda hisoblab chiqilgan va 178 mamlakatni o'z ichiga olgan [11].	
13.	Hayotning jismoniy sifati	Bu indeks kutilayotgan umrning o'rtacha uzoq umr ko'rish	

	indeksi (Physical Quality-of-Life Index, PQLI)	davomiyligi hamda chaqaloqlar o'limining o'rtacha arifmetik ko'rsatkigi yordamida hisoblaniladi. Ushbu indeksdan o'rin o'lish uchun chaqaloqlar o'limi 7% dan yuqori bo'lmashligi, umr davomiyligi 77 yildan kam bo'lmashligi, savodxonlik darajasi esa 100 % bo'lishi lozim [12].
--	---	--

Yuqoridagi jadvalda keltirilgan indeksning barchasi, umumiy qilib aytganda, inson kapitalining rivojlanish darajasi, uning ijtimoiy-iqtisodiy qiymati va shular asosida mamlakatlarning toifalanishini ifodalab beradi. Dunyo mamlakatlarining ijtimoiy-iqtisodiy holati, turmush farovonligi hamda inson huquqlarining ta'minlanganlik darajasini tahlil qilishga qaratilgan tadqiqotlarning asosiy mazmunini inson hayotining narxini baholashga urinish tashkil etadi.

Yashash narxini hisoblashda asosan jamiyatning daromadlari, ishlash, yashash sharoitlari bo'yicha tabaqalanishidagi tafovutlar orqali hisoblaniladi. Uni hisoblashda aniq mikroiqtisodiy ko'rsatkichlar, statistik ma'lumotlar zarur bo'ladi. Ba'zi tadqiqotchilarning yondashuviga ko'ra, inson hayotini baholash "inson kapitali"ning aqliy, jismoniy qobiliyati, malakasiga qarab amalga oshirish amaliyotlarini ham kuzatishimiz mumkin [13]. "Inson hayotining puldagi ekvivalenti bo'yicha ilk tadqiqotlarni L.I. Dublin va A.J. Lotkalarining izlanishlarida kuzatishimiz mumkin. Ularning 1930-yilda nashr qilingan "Insonning puldagi qiymati" ("The money value of a man") asarida inson hayotini baholashda psixologik jihatlarni iqtisodiy jihatlardan ajratish taklifi kiritilgan, Bundan tashqari, ushbu tushunchaning tarixiy natijalari, izlanishlariga e'tibor qaratilgan. Xususan, korxonalarda ishchilar maoshlarini baholash (Uilyam Petti nazariyasi), ishlab chiqarish omillarini baholash (Ernest Engel nazariyasi), sug'urtalash summasini inson sog'lig'iga bog'lash (Uilyam Farr nazariyasi) va boshqa bir qator tarixiy mezonlar tahlil qilingan [14].


MUHOKAMA.

Tadqiqotlarimizning asosiy mazmunini inson kapitalini rivojlantirish, tengsizlikni bartaraf etish, jamiyatning ko'makka muhtoj qatlamlarini qo'llab-quvvatlash bo'yicha aniq mexanizmni shakllantirish ekan, uning asosiy yo'nalishi bo'lgan ijtimoiy himoya dasturlari, ijtimoiy loyihalar hamda ularni amalga oshirishdagi mavjud muammolar tahlilini keltirib o'tish ham maqsadga muvofiqdir.

Ijtimoiy yo'naltirilgan notijorat sektorining umume'tirof etilgan ta'rifi mavjud emas. Biroq, empirik xalqaro tadqiqotlar nuqtai nazaridan, 1990-yildan beri Jon Xopkins universiteti tomonidan muvofiqlashtirilgan keng ko'lamli qiyosiy loyiha doirasida yaratilgan konseptual asosga murojaat qilish mumkin. Shu asosda notijorat sektori bir qancha xususiyatlarga ega tashkilotlardan iborat (1-rasm).

Mamlakatimizda notijorat sektorining asosiy ishtirokchilaridan biri nodavlat-notijorat tashkilotlaridir (NNT). Hozirgi vaqtda rivojlanayotgan mamlakatlar ko'plab muammolarga, jumladan, iqtisodiy, ijtimoiy va bio-ekologik muammolarga duch kelishmoqda. Bu esa o'z navbatida rivojlanayotgan mamlakatlar taraqqiyoti uchun NNTlarga e'tibor berish zarurligini ko'rsatadi. Ushbu turdagi tashkilotlar keng ko'lamli faoliyatni qamrab oladi va ular dunyoning turli sohalarida faoliyat olib boradi.

O'zbekistonda NNTlar ijtimoiy sohaning barqaror rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. O'zbekistonda madaniy, ijtimoiy, hayriya, ta'lim, tibbiyot, sportni rivojlantirish va boshqa shu kabi ijtimoiy muammolarni hal qilishga qaratilgan sohalarida 9791 ta NNT ro'yxatdan o'tgan bo'lib, ularning 9069 tasi amalda faoliyat olib bormoqda.



1-rasm. Notijorat sektorida faoliyat olib boruvchi tashkilotlarning asosiy xususiyatlari [15]

Ular jamiyatimizning turli sohalaridagi ijtimoiy muammolar, jumladan, ta'lim sohasini isloh qilish, ilmiy tadqiqotlar uchun keng imkoniyatlar yaratish, tibbiyot sohasidagi muammolarni bartaraf etish, sportni rivojlantirish, yosh tadbirkorlarni keng imkoniyatlar yaratish, jamiyatda xotin-qizlar faolligini oshirish, huquq va manfaatlarini himoya qilish, gender tengligini ta'minlash, diniy maslahatlar berish, faxriylar, pensionerlar hamda nogironlar huquqlarini muhofaza qilish va boshqa shu kabi bir qator muammolarni bartaraf etishga xizmat qilmoqdalar.

Afsuski, hozirgi paytda NNTlarda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, ijtimoiy qiymat yaratish va rivojlantirish yo'lida bir qator to'siqlarga duch kelmoqdalar, bu esa ijtimoiy qadriyatlarini yaratish va ijtimoiy muammolarni innovatsion hal qilishda NNTlarning ishtirokini cheklaydi. Mamlakatimizda ijtimoiy qo'llab-quvvatlash qonunlari qabul qilingan bo'lsada, ular o'z samarasini berishda ko'p tajriba va yillar talab qiladi. Ijtimoiy korxonalarining bozor munosabatlariga moslashishiga to'sqinlik qiluvchi bozorga kirishdagi bir qancha to'siqlar, jumladan, qadriyatlarga (mezonlar) asoslangan to'siqlar (axloqiy qadriyatlar, falsafiy va siyosiy qadriyatlar), ijtimoiy-iqtisodiy to'siqlar (moliyaviy va inson kapitali kabilar), institutsional to'siqlar (masalan, biznes me'yorlari) va mavjud standartlarni tushunmaslik yoki ularga javob bera olmaslik kabi to'siqlarni keltirib o'tishimiz mumkin. Bunday to'siqlar, ehtimol, ijtimoiy korxonalarining tor doirada faoliyat olib borishini taqozo etadi. Shuningdek, ijtimoiy korxonalar haqida jamoatchilikning noto'g'ri tushunchasi ularning rivojlanishiga to'sqinlik qiluvchi tashqi omillar hisoblanadi [16]. Bu kabi qiyinchiliklar NNTlarning rivojlanishiga, ularda ijtimoiy qiymat yaratishda to'sqinlik qiladi. Ijtimoiy muammolarni hal qilish uchun ularni nazorat qilish, bartaraf etish yo'llarini izlash

kerak. Shunday qilib, ushbu tadqiqot natijalariga asoslanib, quyidagi tavsiyalarni ishlab chiqib amaliyotga joriy etish eng optimal yo'l hisoblanadi:

- Ijtimoiy qiymatni iqtisodiy foydadan ustun qo'yishda o'zaro jamoaviy hamkorlikni kuchaytirish, jamiyat hamda tijorat manfaatlarini birlashtirishda tashabbuskorlik ko'rsatish lozim. Bu tavsiyaning amaliy ifodasi asosan ta'lim sohasiga borib taqaladi, maktab va universitetlarda ijtimoiy sohadagi muammolar va ularni bartaraf etishdagi innovatsion yechimlarga qaratilgan dasturlar asosida yoshlarni o'qitish kerak;
- NNTlar moliyaviy yordam olishlari va juda past foizli grantlar yoki kreditlarga ega bo'lishlari uchun davlat va uning idoralarini jalb etish, hukumat bilan sherikchilik munosabatlarini olib borish orqali qo'llab-quvvatlovchi dasturlar ishlab chiqish, shuningdek, o'zlarining tadbirkorlik g'oyalariga hamda istiqbolli biznes-rejalariga ega bo'lgan kam ta'minlangan shaxslarga alohida e'tibor berish lozim. Bunday tadbirlar aholini tadbirkorlik faoliyatiga jalb qilishga va ularning iqtisodiy faolligini oshirishga xizmat qiladi.
- NNTlarda faoliyat olib boruvchi xodimlarning ish haqini belgilashda mehnatga haq to'lash tizimining mavjud standartlari va me'yorlariga tayangan holda aniq tizimni shakllantirish kerak. Bu xodimlarning ishlash samaradorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi hamda ularning mehnatini rag'batlantiradi;
- NNT a'zolari va menejerlarining tadbirkorlik faoliyati, boshqaruv ko'nikmalari, raqamli iqtisodiyot, marketing strategiyalari, ishbilarmonlik etikasi, tavakkalchilikni boshqarish bo'yicha bilim va malakalarini oshirish uchun maxsus o'quv kurslari tashkil etilishi kerak.

XULOSA.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy xizmatlar tizimi mintaqaviy barqaror rivojlanishning muhim omili hisoblanadi. NNTlar faoliyatining kengayishi, aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini qo'llab-quvvatlash, reabilitatsiya dasturlari va inklyuziv muhitni shakllantirish iqtisodiy barqarorlikka ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Biroq, mavjud institutsional va moliyaviy to'siqlar ijtimoiy korxonalarining bozorga moslashuvini sekinlashtirmoqda. Shu sababli, davlat tomonidan grantlar, soliq imtiyozlari va hamkorlik mexanizmlarini kuchaytirish, shuningdek, ta'lim tizimida ijtimoiy innovatsiyalarni rivojlantirish zarur. Ijtimoiy xizmatlarni rivojlantirish nafaqat iqtisodiy samaradorlikni oshiradi, balki jamiyatda ijtimoiy barqarorlik va inson qadri tamoyillarini mustahkamlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Дюркгейм Э. Социология: ее предмет, метод, предназначение. — М.: Канон, 1995. — 352 с. //R. Merton. Social theory and social structure. 1968, New York, Amerika, p 267. // Neil J. Smelser, The Sociology of Economic Life. Englewood Cliffs, N.J., Prentice-Hall, 1963, pp. 27-28. // Х.Ламперт. Социальная рыночная экономика. Германский путь. Издательство «Дело», Москва, 1994. стр 46, 66-67.
2. Q.X. Abduraxmonov. Ijtimoiy soha iqtisodiyoti. Darslik. — T.: Iqtisodiyot, 2013. —

- 56-b. // Pardayev M.Q., Isroilov J.I., G‘apparov A.Q. Xizmat ko‘rsatish sohasida iqtisodiy tahlilni takomillashtirish muammolari. Risola. Samarqand. “Zarafshon”, 2009.
- 66-b. // Raxmonov D.A. O‘zbekistonda ijtimoiy xizmat tizimini rivojlantirishning etnomadaniy xususiyatlari. 09.00.04 – “Ijtimoiy falsafa” falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi, Toshkent-2019 y.
3. Виленский П.Л., Лившиц В.Н., Смоляк С.А. Оценка эффективности инвестиционных проектов: теория и практика. — М.: Дело, 2002 — 888 с.
4. Проекты социального предпринимательства, поддержанные фондом «Наше будущее» // <http://nb-fund.ru/socbizactual1>
5. United Nations Development Programme. Human Development Report. – New York: NY 10017, 2016 – P. 272
6. <https://ourworldindata.org/grapher/human-development-index?tab=chart&country=UZB>
7. “Home”. socialprogressimperative.org. Social Progress Imperative. Retrieved October 30, 2015.
8. “Data - Social Progress Index – Methodology”. socialprogressimperative.org. Social Progress Imperative. Archived from the original on May 26, 2015. Retrieved May 14, 2015.
9. <https://countryeconomy.com/demography/spi/uzbekistan>.
10. The Genuine Progress Indicator. A Tool for Sustainable Development / Dr. John Talberth, Clifford Cobb and Noah Slattery, Oakland, CA 94612, 2006 – P. 31
11. Официальный сайт Счастливая Планета Index. – Режим доступа: <http://happyplanetindex.org/>, свободный. Дата обращения: 10.07.2017 г.
12. Morris D. Measuring the condition of the world’s poor: the physical quality of life index, New York: Pergamon Press, 1979 – P. 176
13. Капелюшников Р. Сколько стоит человеческий капитал России? 2012, 6-7 стр. Препринт WP3/2012/06. М.: Изд. дом ВШЭ.
14. Заводских А.А., Кислицына М.А. Стоимость жизни человека как мера оценки благосостояния общества // Научное обозрение. Экономические науки. – 2020. – № 3. – С. 27-31; URL: <https://science-economy.ru/ru/article/view?id=1046>.
15. <https://emes.net/focus-areas/>;
Ehsan Khosravi, Hossein Azadi, Faranak Karamian “Barriers to Developing Social Entrepreneurship in NGOs: Application of Grounded Theory in Western Iran” // Article in Journal of Social Entrepreneurship June 2020. - P 3.